

Nazarov Dawletniyaz Allaniyaz uli

*Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti Iqtisodiyotda axborot
texnologiyalari va tizimlari mutaxassisligi 1-kurs magistranti*

MILLIY IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISHDA DAVLATNING O‘RNI VA MAQSADI

Annotatsiya. Maqolada davlatning milliy iqtisodiyotga aralashuvidagi usullar, iqtisodiy mexanizmlarning to‘laqonli faoliyat yuritishidagi ahamiyati tadqiq etilgan. Mamlakatning iqtisodiy islohotlari, raqamli boshqaruv va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashdagi muhim roli tahlil qilingan. Shu bilan birga, mamlakatning bozor mexanizmlarini muvofiqlashtirish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlari to‘g‘risida tavsiya berilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy iqtisodiyot, davlat boshqaruvi, bozor mexanizmi, tartibga solish,

Назаров Давлетнияз Алланияз ули

*Магистрант 1-курса специальности «Информационные технологии и
системы в экономике»*

Факультет экономики, Каракалпакский государственный университет

РОЛЬ И ЦЕЛЬ ГОСУДАРСТВА В РЕГУЛИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ

Аннотация. В статье исследуются методы государственного вмешательства в национальную экономику и значение экономических механизмов в их полноценном функционировании. Проанализирована важная роль страны в экономических реформах, цифровом управлении и обеспечении социальной стабильности. Вместе с тем, даны рекомендации о проводимых в стране реформах по координации рыночных механизмов и обеспечению экономической стабильности.

Ключевые слова: Национальная экономика, государственное управление, рыночный механизм, регулирование,

THE ROLE AND OBJECTIVE OF THE STATE IN THE REGULATION OF THE NATIONAL ECONOMY

Annotation. The article examines the methods of state intervention in the national economy and the significance of economic mechanisms in their full functioning. The country's important role in economic reforms, digital governance, and ensuring social stability is analyzed. At the same time, a recommendation was given on the reforms being carried out in the country to coordinate market mechanisms and ensure economic stability.

Keywords: National economy, public administration, market mechanism, regulation.

Kirish. Milliy iqtisodiyotimiz ulushi hisoblangan bozor iqtisodiyoti zamonaviy sharoitda rivojlanishning eng samarali iqtisodiy tizimi sifatida e'tirof etilgan. Uning asosiy vositalari - talab va taklif bo'lib, ular asosida resurslar taqsimoti, ishlab chiqarish va iste'mol jarayonlarining o'z-o'zidan muvozanatga kelishi nazariy jihatdan tushuniladi. Lekin, tarixiy va bugungi zamonaviy tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bozor o'zini o'zi to'liq boshqara olmaydi. Ayniqsa, ijtimoiy tengsizlik, ekologik muammolar, inqirozlar, tashqi iqtisodiy ta'sirlar sharoitida davlat aralashuvisiz bozor faoliyatini tasavvur qilib bo'lmaydi.

Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat qonunchilik bazasini yaratish va joriy etish, soliq va moliyaviy siyosatni yuritish, infratuzilma faoliyatini ta'minlaydigan institutsional tizimlarni joriy etish orqali faol ishtirok etadi. Xususan, mulk huquqini kafolatlash, shartnomalar erkinligini ta'minlash va raqobat muhitini yaratish - bozordagi adolatli faoliyat qoidalarini belgilaydi. Shu bilan birga, davlat

inflyatsiyani jilovlash, bandlikni ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimlarini barpo etish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Mamlakatimizda ham so'nggi yillarda davlat tomonidan milliy iqtisodiyotni tartibga solish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan erkin valyuta konvertatsiyasi, yangi soliq kodeksi, xususiylashtirish siyosati va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish kabilar mamlakatning bozor iqtisodiyotini yaxshiroq faoliyat yuritishini ta'minlaydigan tartibga solish vositalari hisoblanadi. Bu islohotlar nafaqat barqaror iqtisodiy o'sishni, balki erkin bozorning to'liq shakllanishini ham ta'minlayapti [1].

Adabiyotlar tahlili. Davlat tomonidan bozor iqtisodiyotini tartibga solish hamda iqtisodiy barqarorlikka erishish maqsadlari tahlilini joriy etgan xorijiy va mahalliy iqtisodchilar I.Sergekayev, I.Veretennikova, Sh.Zaynutdinov, R.Nurimbetov, V.Kushlin, D.Keyns, V.Oyken, M.Raxmatov va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari hamda olib borgan tadqiqotlari o'rganildi. Olib borgan izlanishimiz davomida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish tizimi to'g'risida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar ishlarini o'rganish natijasida tizimli ravishda iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilindi [3].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada davlat tomonidan bozor iqtisodiyotini tartibga solishga oid yetakchi xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning tadqiqot natijalarini o'rganish va ma'lumotlarini taqqoslash, iqtisodiy, mantiqiy tahlil qilish kabi usullardan foydalanildi [4].

Tahlil va natijalar. Davlat tomonidan bozorni tartibga solish deganda hukumatning milliy iqtisodiyotga aralashuvi orqali bozordagi vujudga kelgan va vujudga kelishi kutilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish, nafaqat iqtisodiy barqarorlikni, balki iqtisodiy o'sishni ham ta'minlash hamda aholi uchun zarur bo'lgan maqsadlarga erishish uchun davlat tomonidan bevosita va bilvosita amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui tushuniladi. Bu jarayonlar davlatning bozorda faoliyat yuritayotgan subyektlar faoliyatiga ta'sir etuvchi boshqaruv, iqtisodiy hamda

ijtimoiy-madaniy usullari orqali boshqaruv mexanizmlarini joriy etishni nazarda tutadi.

Davlat tomonidan bozor mexanizmlarini tartibga solishning asosiy maqsadlari milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda bozorning o'z-o'zini tartibga solish imkoniyatlarini to'ldirishga qaratilgan. Avvalo, davlat ijtimoiy adolatni ta'minlashga intiladi, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida daromadlar va imkoniyatlar nomutanosibligi kuchayishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni saqlash, inflyatsiya jarayonlarini jilovlash, bandlikni qo'llab-quvvatlash va iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish davlatning eng muhim vazifalaridan biridir. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish ham ustuvor yo'nalish bo'lib, buning orqali mamlakatning xalqaro maydondagi pozitsiyasi mustahkamlanadi.

Davlat bozor mexanizmlarining kamchiliklarini to'ldirish, bozor yetarlicha tartibga sololmaydigan sohalarda faollik ko'rsatish, shuningdek ekologiyani muhofaza qilish, atrof-muhit barqarorligini saqlash orqali iqtisodiy rivojlanishni ekologik talablar bilan uyg'unlashtirishni ham nazarda tutadi. Bundan tashqari, davlat nazorat funksiyasi orqali qonunchilikka rioya etilishini, iqtisodiy subyektlar faoliyatining shaffofligini ta'minlaydi va strategik ahamiyatga ega sohalarni qo'llab-quvvatlab, ularning uzluksiz ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi [2].

Bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlat bir qator iqtisodiy va boshqaruv vositalaridan foydalanadi. Jumladan, soliqlar va subsidiyalar orqali korxonalar faoliyatini rag'batlantiradi yoki cheklaydi, budget daromadlari barqarorligini ta'minlaydi. Monopoliyaga qarshi choralar bozor raqobatini qo'llab-quvvatlab, adolatli iqtisodiy muhit yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, monetar siyosat vositalari yordamida davlat pul muomalasini tartibga soladi, kreditlar hajmi, foiz stavkalari va xalq xo'jaligidagi likvidlik darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Davlat buyurtmalari esa strategik tarmoqlarda ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag'batlantirish va iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi muhim mexanizmlar sifatida maydonga chiqadi. Shu kabi choralar orqali davlat

bozor tizimining samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi va milliy iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlarda rivojlanishiga ko'maklashadi [5].

Iqtisodiyotga davlat aralashuvi bir tomondan iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi, infratuzilmani rivojlantirishga xizmat qiladi va tadbirkorlikni rag'batlantiradi. Boshqa tomondan esa byurokratiyaning vujudga kelishi va bozor erkinligining cheklanishi kabi salbiy oqibatlariga olib kelish ehtimoli mavjudligi bilan izohlanadi. Shu sababli, davlatning iqtisodiy siyosati muvozanatli va strategik yondashuvlarga asoslangan bo'lishi, bozor subyektlari manfaatlarini o'zida aks ettirishi kerak. Bozor iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanish bosqichida mamlakatning raqobat muhitini shakllantirishdagi roli alohida o'rin tutadi.

Xususiy mulkning huquqiy himoyasi, korrupsiyaga qarshi kurash va tashqi investitsiyalar uchun ishonchli muhit yaratish - bularning barchasi davlat siyosatining strategik yo'nalishlaridir. Davlatning ijtimoiy vazifalari esa aholining kam ta'minlangan qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, sog'liqni saqlash, ta'lim tizimini rivojlantirish, pensiya ta'minoti hamda ijtimoiy sug'urta tizimlarini isloh qilish orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, global iqtisodiy tizimda O'zbekiston davlatining yaxlit siyosati ham muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tashkilotlar, mintaqaviy sheriklik, savdo kelishuvlari orqali mamlakat iqtisodiy aloqalarni kengaytirmoqda.

Bu jarayonda davlatning tashqi siyosati, iqtisodiy diplomatiya va investitsiya muhiti yaratuvchisi sifatidagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilgan "Harakatlar strategiyasi" hamda "Yangi O'zbekiston - 2030" dasturi asosida mamlakat iqtisodiyotni tartibga solishda samarali vositalar - soliq islohotlari, kredit tizimini erkinlashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va xorijiy investitsiyalar uchun ochiq muhit yaratish kabi iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, 2023 yil yakunlariga ko'ra, xorijiy mablag'lar hajmi 11 milliard AQSH dollaridan oshgan bo'lib, bu davlat tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida shakllangan barqaror investitsiya muhitining ifodasidir. Davlat, ayni paytda, bozor mexanizmlarining to'liq va adolatli ishlashini ta'minlash

maqsadida, narxlarni erkinlashtirish bilan birga, strategik sohalarda o'z nazoratini saqlab qolmoqda. Energetika, transport va oziq-ovqat xavfsizligi kabi sohalarda davlatning ishtiroki aholining ijtimoiy himoyasini kafolatlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga,

O'zbekiston hukumati raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali davlat boshqaruvini optimallashtirish, shaffoflikni oshirish va korrupsiyani kamaytirish bo'yicha yuqori natijalarga erishmoqda. Elektron xizmatlar tizimi va raqamli soliq monitoringi bunga yorqin misol bo'la oladi. Boshqa sohalarda bo'lgani kabi mamlakatimizda sanoat sohasida ham ijobiy o'sish kuzatilib, sanoat ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilga nisbatan 6,8 foizga oshgan. Qurilish sohasi esa yildan-yilga jadallashib, 2024 yilda 8,8 foizlik o'sish sur'atiga erishgan.

Milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri xizmatlar sohasining umumiy hajmi esa 7,7 foizga o'sib, iqtisodiy faollikni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qilmoqda. 2024 yilda kichik biznesning YAIMdagi ulushi 51,2 foizdan 54,3 foizgacha oshib, iqtisodiy hayotdagi roli yanada mustahkamlangan. Xizmatlar sohasidagi o'sish ichki iste'molning oshishi va texnologik xizmatlar ko'lamining kengayishi bilan bog'liq bo'ldi. Qurilishdagi yuqori o'sishga asoslanib infratuzilma loyihalari va ko'p qavatli uylar qurilishi bilan ta'minlandi. Sanoat sohasida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi kengayishi kuzatilyapti. Bu esa aholi jon boshiga real daromadlari o'sishiga, pirovardida, ichki talabni rag'batlantirishda asosiy rol o'ynadi [6].

Xulosa va takliflar. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagi roli juda muhim bo'lib, jahon tajribasidan ma'lumki, biron-bir iqtisodiy tizim davlat aralashuvisiz o'zini o'zi boshqara olmaydi. Davlat o'z iqtisodiy siyosati orqali mamlakatdagi iqtisodiy barqarorlik, adolatli ijtimoiy himoya va sog'lom raqobat kafolati sifatida muntazam faoliyat yuritadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat va bozor munosabatida bog'liqlik mavjud bo'lsa, jamiyatning har tomonlama yuksalishiga erishishiga keng imkoniyat

yaratiladi. Ya'ni, bozor iqtisodiyoti faqat davlatning tartibga solib qo'yishi va qo'llab-quvvatlashi bilan barqaror rivojlanadi.

Davlat boshqaruvi va bozor mexanizmlari bir-biriga zid emas, balki ular bir-birini to'ldiruvchi tizimlardir. Hatto bozordagi erkinlikni ta'minlashda davlatning aralashuvi zarur holatlardan biri. Shu bilan birga, mamlakat kelajakda kutilayotgan iqtisodiy inqirozlarning oldini olishda ham muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan amalga oshirilgan islohotlar bozor iqtisodiyotining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi bilan birga, kutilayotgan inqirozlarga tayyor bo'lishni ta'minlaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonini boshlagan bo'lib, bu yo'lda davlat zarur rol - iqtisodiyotni tartibga soluvchi asosiy institut sifatida faoliyat yuritmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat faqat iqtisodiy muvozanatni saqlash, shu bilan birga ijtimoiy himoya, raqamli transformatsiya va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali umumiy taraqqiyotga yo'l ochmoqda. Yuqorida bildirilgan fikrlardan kelib chiqib, milliy iqtisodiyotning yanada faol rivojlanishi, barqaror iqtisodiy taraqqiyotga erishish uchun bizning nuqtai nazarimizdan, davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarda quyidagi sohalarga ustuvorlik berilishi maqsadga muvofiq:

1. Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish: Raqamli infratuzilmani kengaytirish va elektron xizmatlar sifati va ko'lamini muntazam ravishda takomillashtirib borish.
2. Atrof-muhitni muhofaza qilish: Yashil iqtisodiyotga asoslangan tadbirkorlik faoliyatini doimiy qo'llab-quvvatlab borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. И.Сергеев, И.Веретенникова Экономика организаций (предприятий)Изд.: Кнорус, 2010 г. 670 с.
2. Ш.Зайнутдинов, Р.Нуримбетов Ресурсная база и потенциал производство Узбекистана: использования и эффективность (региональный аспект). Бюллетень науки и практики 2017. No10 (23) стр. 207-217.

3. С. Капканщикова «Государственное регулирование экономики. (Аспирантура, Бакалавриат, Магистратура). Учебное пособие.» Изд.: Литрес. 2024 г., 548 с.
4. Кушлин В.И. Государственное регулирование рыночной экономики: Учебник. Изд. 3-е, доп. и перераб. – М.: «РАГС», 2014. – 616 с.
5. Кейнс Д.М. Общая теория занятости, процента и денег. М.: «ЭКСМО», 2009, - 153 с.
6. В.Ойкен Основные принципы экономической политики Прогресс, Универс 1995 г. 496 с.